

## TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

**Mavlyanova Dilobar Maxkamovna**

TDIU “Buxgalteriya hisobi” kafedrası dotsenti

ORCID: 0000-0002-7947-5265

E-mail: [d.mavlyanova@mail.ru](mailto:d.mavlyanova@mail.ru)

### Annotatsiya

Ushbu maqolada tovar-moddiy zaxiralarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, xususan, 2-son “Zaxiralar” BHXS asosida hisobga olish va baholash masalalari atroflicha yoritib berildi. Tannarx tarkibiga kiruvchi asosiy xarajatlar – sotib olish, qayta ishlash hamda boshqa qo‘shimcha xarajatlar real misollar asosida tushuntirildi. Tadqiqot davomida “O‘zbekneftgaz” AJ faoliyati asosida amaliy buxgalteriya yozuvlari va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish tartibi ko‘rsatib o‘tildi. Milliy va xalqaro standartlar taqqoslab tahlil qilindi va hisobot axborotlarini “sotish tannarxi” usuli orqali tasniflash taklifi ilgari surildi. Olingan xulosalar zaxiralar hisobini aniq, tahliliy va ishonchli yuritishga zamin yaratadi.

**Kalit so‘zlar:** tovar moddiy zaxira, hisob, standart, sof sotish qiymati, hisobot, tannarx, foyda, zarar, sotib olish xarajatlari, qayta ishlash xarajatlari.

### Аннотация

В данной статье подробно рассмотрены вопросы учёта и оценки товарно-материальных запасов на основе Международных стандартов финансовой отчётности, в частности, стандарта №2 «Запасы». Основные элементы себестоимости — закупочные, перерабатывающие и прочие сопутствующие расходы — проанализированы на конкретных примерах. В ходе исследования были приведены бухгалтерские проводки и порядок отражения в отчётности на примере АО «Uzbekneftegaz». Проведено сравнительное изучение национальных и международных стандартов, а также предложен подход к классификации отчётной информации по методу «себестоимость продаж». Полученные выводы способствовали повышению точности, аналитичности и достоверности учёта запасов.

**Ключевые слова:** товарно-материальный запас, бухгалтерский учет, стандарт, чистая стоимость реализации, себестоимость, отчетность, прибыль, убыток, затраты на закупку, затраты на переработку.

### Abstract

This article thoroughly explored the accounting and valuation of inventories based on the International Financial Reporting Standards (IFRS), particularly IFRS No. 2 "Inventories". The key cost components – purchase, processing, and other additional expenses – were explained using practical examples. During the study, accounting entries and reporting procedures were illustrated using the case of “Uzbekneftegaz” JSC. A comparative analysis of national and international standards was conducted, and the classification of reporting information based on the "cost of sales" method was proposed. The conclusions drawn contributed to enhancing the accuracy, analytical depth, and reliability of inventory accounting.

**Keywords:** commodity material reserve, accounting, standard, net sales value, reporting, cost, profit, loss, purchase costs, processing costs.

## KIRISH

Bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlik subyektlari biznes jarayonlari uzluksizligini ta'minlashda tovar-moddiy zaxiralar muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bu aktivlar mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish jarayonida hamda ma'muriy vazifalarni amalga oshirishda foydalaniladigan aktivlar hisoblanadi. Shu bois, tadbirkorlik subyektlari o'zida mavjud bo'lgan tovar-moddiy zaxiralardan samarali foydalanish mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, rentabellik darajasini oshirish, tannarx darajasini pasaytirish hamda foyda hajmini oshirish imkonini beradi. Shuning uchun tadbirkorlik subyektlarida tovar-moddiy zaxiralarni o'z vaqtida va to'g'ri tan olish, baholash, ular bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotda aks ettirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevral PQ-4611-son "Moliyaviy hisobot xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida<sup>1</sup> tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlashga o'tishni jadallashtirish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash ham o'z navbatida tovar-moddiy zaxiralar hisobini MHXS asosida takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Albatta, tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirishning nazariy, tashkiliy va uslubiy asoslarini takomillashtirish masalalarini xorijlik va mamlakatimiz iqtisodchi olimlari o'zlarining ilmiy va o'quv-uslubiy asarlarida tadqiq qilib o'rganishgan. Xususan, xorijlik iqtisodchi olimlar N.V.Moskalenko, E.S.Vasyukova va D.O.Chestnyxlar [7] tovar-moddiy zaxiralarni moliyaviy hisobotda aks ettirish xususiyatlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan. Iqtisodchi olimlar tovar-moddiy zaxiralar tushunchasi va ularning tashkilotni izchil rivojlanishidagi rolini ochib bergan. Shuningdek, tovar-moddiy zaxiralarni buxgalteriya hisobida noto'g'ri aks ettirish tashkilotning moliyaviy holatining yomonlashuviga, ulardan samarali foydalanmaslik moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishini asoslagan holda ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish xususiyatlari yoritib berishgan.

V.A.Rovenskiy [8] tomonidan Rossiyaning tog'-kon sanoati tashkilotlarida moddiy (material) resurslarni hisobga olishning nazariy va normativ-huquqiy asoslari, tog'-kon sanoati tashkilotlari moddiy resurslari konseptual apparatini tizimlashtirish va ularni kelib chiqishi bo'yicha tasniflash, baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini tadqiq qilib o'rganilgan. Muallif tadqiqot ishida tog'-kon sanoati

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevral PQ-4611-son "Moliyaviy hisobot xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/-4746047>

tashkilotlarining moddiy resurslarini hisobga olish bo'yicha uslubiy tavsiyalarini keltirib o'tadi.

Manuela Lucchese, Ferdinando Di Carlolar [6] US-GAAP va IFRS standartlari bo'yicha tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish masalalarini tadqiq qilib o'rganishgan. Xususan, ular tadqiqot ishida US-GAAP va IFRS bo'yicha tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olishdagi asosiy farqli jihatlarni, baholash va hisobga olish usullarini yoritib bergan. Shuningdek, materiallar hisobdan chiqarilganda realizatsiya qilishning sof qiymatini kompleks aniqlash bo'yicha o'z yondashuvlarini asoslagan holda ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berib o'tishgan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan S.N.Tashnazarov [9] ham tovar-moddiy zaxiralar tannarxi va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalarini tadqiq qilib o'rgangan. Mazkur tadqiqot ishida iqtisodchi olim 2-son "Zaxiralar" nomli MHXS va 4-son "Tovar-moddiy zaxiralar" nomli BHMSlarda belgilangan umumiy qoidalarni solishtirish natijalari asosida tovar-moddiy zaxiralar tannarxini shakllantirish, ularni baholash masalalarini bayon qilgan holda ularning buxgalteriya balansida tarkibini takomillashtirish bo'yicha o'z yondashuvlarini keltirib o'tadi. Xususan, buxgalteriya balansini xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida uning e'lon qilinadigan shaklida moddalarini qisqartirish lozim deb ta'kidlagan holda tovar-moddiy zaxiralarni buxgalteriya balansining faqat 140-satri umumlashtirgan holda aks ettirishni taklif etadi. Bunda iqtisodchi olim buxgalteriya balansining ixcham shaklga kelishini va uning tarkibi va mazmunini xalqaro standartlarga uyg'unlashtiradi deb hisoblaydi. Biroq, buxgalteriya balansi 140-satrida umumlashgan holda ko'rsatilgan tovar-moddiy zaxiralar to'g'risida axborotdan foydalanuvchilarga qanday tartibda ma'lumotlar yoritib berish masalalari keltirib o'tilmagan.

M.I.Xayitboyev esa, tovar-moddiy zaxiralarni baholash va ularga doir axborotlarni moliyaviy hisobotda ochib berish masalalari bo'yicha olib borgan ilmiy izlanishlari natijalari asosida quyidagi xulosa va takliflarni keltirib o'tadi: "1. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida zaxiralarni tan olish vaqti aktivni o'tgan voqealar natijasida tashkilot tomonidan nazorat qilinuvchi resurs sifatida umumiy tushunishga tayanib, undan iqtisodiy naf olinishi munosabati bilan zaxiralar hisobida ular ustidan nazorat o'rnatish va iqtisodiy foyda olish imkoniyati bo'yicha tan olinishi kerak. 2. Tovar moddiy zaxiralar bo'yicha operatsiyalar xususiyatlarining mohiyati va mazmuni ularni turli belgilari bo'yicha tasniflash, baholash va axborotni ochib berishga yordam beradi. Tovar moddiy zaxiralarni baholashda rivojlangan mamlakatlar – AQSH, Germaniya, Fransiya va boshqa davlatlarning ilg'or tajribalarining qo'llanilishi tovar moddiy zaxiralar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish imkonini beradi." [10] Ammo, muallif tomonidan tovar-moddiy zaxiralarni baholashda ilg'or tajriba sifatida qo'llash taklif etilgan rivojlangan mamlakatlarning tajribalari, baholash usullaridan foydalanish tartibi amaliy ma'lumotlar asosida yoritib berilmagan. Shu bilan birga, tovar-moddiy zaxiralarga doir ma'lumotlarni yoritib berish tartibi 2-son MHXSda belgilangan qoidalar bilan chegaralangan xolos. Ya'ni, zaxiralarga doir yoritib beriladigan ma'lumotlar qanday

mazmunda, tartib va shaklda axborotdan foydalanuvchiga taqdim etilishi ko'rsatib berilmagan.

Shuningdek, N.A.Alimxanova [4] tomonidan ham tovar-moddiy zaxiralar hisobining nazariy asoslari tadqiq qilingan bo'lib, unda muallif amaldagi 4-son BHMSda belgilangan qoidalarga muvofiq tovar-moddiy zaxiralarni tasniflash, tan olish va baholash, tannarxini shakllantirish masalalarini umumiy asoslarda yoritib beradi.

A.N.Achilov tomonidan esa, kimyo sanoati korxonalarida tovar moddiy zaxiralar turkumlanishining o'ziga xos xususiyatlari va ular hisobini takomillashtirish masalalari tadqiq qilib o'rganilgan bo'lib, unda iqtisodchi olim "Kimyo sanoati korxonalarida tovar moddiy zaxiralarning tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqqan holda materiallarni o'ziga xos tartib asosida guruhlash maqsadga muvofiq" [5] deb ta'kidlaydi. O'z navbatida, materiallarni nazariy va amaliy jihatdan hamda ishlab chiqarish xarajatlarini kalkulyatsiya moddalari bo'yicha guruhlanishini taklif etadi. Shu bilan birga, kimyo sanoati korxonalari amaliyotida chiqindilarni hisobga oluvchi alohida schyotlardan foydalanilmasligi sababli, ularni ishlab chiqarishga sarflanishi jarayoni va uning natijalarini alohida "Qaytarilgan chiqindilar" schyotida hisobga olishni taklif qiladi.

O.E.Xudoyberdiyev [11] ham joriy aktivlar tarkibida zaxiralarni baholash masalasini xalqaro va milliy standartlar qoidalarini taqqoslash asosida o'rgangan bo'lib, unda muallif zaxiralarni xalqaro standartlar asosida baholanishi, zaxiralar tannarxi elementlari va zaxiralar tannarxining zanjir asosida shakllanishi kabi masalalarni tadqiq qilgan holda o'z yondashuvlarini keltirib o'tadi. Biroq, muallif zaxiralar tannarxini shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalarni hisobga olish va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibiga to'xtalib o'tmaydi. Ya'ni, amaliy ma'lumotlar asosida xalqaro standartlarga muvofiq zaxiralar tannarxini shakllantirish tartibi bilan chegaralangan xolos.

## **METODOLOGIYA**

Tovar-moddiy zaxiralar hisobini MHXS asosida takomillashtirish masalalarini o'rganishda mantiqiy fikrlash, dalillar to'plash, tasavvur etish, qiyoslash, shakllantirish va muammoni qo'yish kabi nazariy-tadqiqot hamda ilmiy adabiyotlar, kuzatish va davr oralig'ida tadqiq qilish kabi empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning tovar-moddiy zaxiralarni tan olish, baholash, hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish borasidagi yondashuvlarini e'tirof etgan holda tovar-moddiy zaxiralar tannarxi va va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibini MHXSlari asosida takomillashtirish masalasiga to'xtalib o'tmoqchimiz.


Ma'lumki, milliy hisob tizimida moliyaviy hisobotni tayyorlovchi tadbirkorlik subyektlari ikki guruhga ajratildi:

Birinchi guruh – BHMSga asosan yillik moliyaviy hisobotni tayyorlovchi. Bu guruhga kiruvchi tadbirkorlik subyektlarida tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibi 4-son «Tovar-moddiy zaxiralar» BHMS [3] da

belgilangan;

Ikkinchi guruh – MHXSga asosan yillik moliyaviy hisobotni tayyorlovchi. Ushbu guruhga kiruvchi tadbirkorlik subyektlarida esa, tovar-moddiy zaxiralar hisobi va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibi 2-son «Zaxiralar» BHXS [2] da belgilangan.

Mazkur BHXS va BHMSlarda tovar-moddiy zaxiralar tannarxini shakllantirish tartibi quyidagicha belgilangan (1-rasm).



**1-rasm. 2-son BHXS va 4-son BHMS asosida tovar-moddiy zaxiralar tannarxini shakllantirish tartibi<sup>1</sup>.**

1-rasm maʼlumotlariga koʻra, 2-son «Zaxiralar» BHXSga muvofiq tovar-moddiy zaxiralar tannarxi sotib olish xarajatlari, qayta ishlash xarajatlari va boshqa xarajatlar

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi.

elementlaridan tashkil topadi. Mazkur xalqaro standartdan farqli ravishda 4-son «Tovar-moddiy zaxiralar» BHMSda tovar-moddiy zaxiralar tannarxini shakllantirish ikki quyi guruhga ajratilgan holda belgilangan. Ya'ni, xarid qilingan va tashkilotda ishlab chiqarilgan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxini shakllantirish tartiblari alohida belgilangan.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, xalqaro standartda ham milliy standartda ham sotib olish xarajatlaridan savdo chegirmalari, qoplab berishlar va shu kabilar chegirilib tashlanishi lozimligi qayd etilgan. Aytaylik, «O'zbekneftgaz» AJ ishlab chiqarish faoliyatida foydalanish maqsadida materiallar to'plamini sotib olmoqda. Materiallar bir birligining narxi 120000 so'mga teng. Shartnoma shartlariga muvofiq xarid qilinadigan materiallar miqdori 500 birlikdan 1000 birlikkacha yetadigan bo'lsa, mol yetkazib beruvchi tomonidan 5 foiz miqdorida umumiy xarid qiymatidan chegirma berilishi belgilangan. «O'zbekneftgaz» AJ hisobot davrida 900 birlik miqdorida materiallar to'plamini xarid qildi. Materiallar to'plamini yetkazib berish bilan bog'liq transport xarajatlari 15 000 000 so'mga teng.

Mazkur holatda «O'zbekneftgaz» AJ tomonidan xarid qilingan materiallar to'plamining sotib olish xarajatlari 117 600 000 (900 X 120000 (100% — 5%) + 15 000 000) so'mni tashkil qiladi. Ushbu sotib olish xarajatlari buxgalteriya hisobida xarid qilingan materiallar tannarxi sifatida quyidagicha hisobga olinadi:

Debet Materiallar – 117 600 000 so'm;

Kredit Mol yetkazib beruvchilarga to'lanadigan schyotlar – 117 600 000 so'm.

Agarda mol yetkazib beruvchi tomonidan sotib olingan materiallar to'plami uchun chegirma realizatsiyadan keyin taqdim etiladigan bo'lsa, buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

1. Materiallarni sotib olish qiymati 123 000 000 (900 X 120000) + 15 000 000) so'm hisobga olinganda:

Debet Materiallar – 123 000 000 so'm;

Kredit Mol yetkazib beruvchilarga to'lanadigan schyotlar – 123 000 000 so'm.

2. Xariddan keyin berilgan 5 foizlik chegirma 5 400 000 ((900 X 120000) X 5 %) so'm quyidagicha hisobga olinadi:

Debet Mol yetkazib beruvchilarga to'lanadigan schyotlar – 5 400 000 so'm;

Kredit Boshqa operatsion daromadlar – 5 400 000 so'm.

Shu bilan birga, aksiyadorlik jamiyati kechiktirib to'lash sharti bilan ham tovar-moddiy zaxiralar sotib olishi mumkin. Bunday holatda tuzilgan shartnoma moliyalashtirish elementini o'z ichiga olgan bo'lsa, unda to'langan summa va oddiy shartlarda xarid qiymati o'rtasidagi farq, moliyalashtirish davri davomida foiz xarajatlari ko'rinishida xarajatlar sifatida tan olinib, tovar-moddiy zaxiralar tannarxiga kiritilmaydi. Masalan, «O'zbekneftgaz» AJ hisobot davrida materiallar to'plamini kechiktirib to'lash sharti bilan sotib olmoqda. Shartnoma shartlariga ko'ra kechiktirib to'lash davri 6 oyni tashkil qiladi. Ya'ni, aksiyadorlik jamiyati sotib olingan materiallar to'plami uchun 6 oydan keyin 680 000 000 so'm to'lashi lozim. Shartnomaga muvofiq aksiyadorlik jamiyati sotib olinadigan materiallar to'plami uchun kechiktirib to'lashni amalga oshirmasdan to'lovni amalga oshiradigan bo'lsa, 650 000 000 so'm to'lanishi

belgilangan.

«O‘zbekneftgaz» AJda ushbu materiallar to‘plamini kechiktirib to‘lash sharti bilan bog‘liq operatsiyalar quyidagicha hisobga olinadi:

1. Sotib olish vaqtida materiallar to‘plamining tannarxi 650 000 000 so‘m bo‘yicha hisobga olinadi:

Debet Materiallar – 650 000 000 so‘m;

Kredit Mol yetkazib beruvchilarga to‘lanadigan schyotlar – 650 000 000 so‘m.

2. Kechiktirib to‘lash muddati davomida, ya’ni har oyda 5 000 000 (680 000 000 – 650 000 000) / 6 oy ) so‘m foiz ko‘rinishidagi xarajatlar tan olinganda:

Debet Foiz ko‘rinishidagi xarajatlar – 5 000 000 so‘m;

Kredit Mol yetkazib beruvchilarga to‘lanadigan schyotlar – 5 000 000 so‘m.

Endi qayta ishlash xarajatlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, ular mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liq xarajatlar bo‘lib, bevosita mehnat xarajatlari, doimiy va o‘zgaruvchan ustama xarajatlardan tashkil topadi.

Doimiy ishlab chiqarish ustama xarajatlari mahsulot ishlab chiqarish hajmi o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar hisoblanadi. Biroq, ular mahsulot birligiga nisbatan o‘zgaruvchan xarajaddir. Bunday xarajatlar tarkibiga ishlab chiqarish asosiy vositalarning eskirishi, ularni saqlab turish bilan bog‘liq xarajatlarni kiritish mumkin.

Mazkur xarajatlarning qayta ishlash xarajatlariga olib borilishi 2-son BHXSga muvofiq ishlab chiqarish obyektlarining normal quvvatiga qarab belgilanadi. Masalan, «O‘zbekneftgaz» AJ ishlab chiqarish obyektlarining normal quvvati bir oyda 75000 soatni tashkil qiladi. Doimiy ishlab chiqarish ustama xarajatlar har oyda 240 000 000 so‘mga teng. Aytaylik, ishlab chiqarish obyektlaridan birinchi oyda 72000 soat, ikkinchi oyda 80000 soat foydalandi.

Ushbu holatda, «O‘zbekneftgaz» AJ birinchi oy oxirida taqsimlanmagan 9 600 000 (240 000 000 / 75000 X (75000 — 72000)) so‘m doimiy ishlab chiqarish ustama xarajatlarini foyda va zararlarga olib borganda quyidagicha hisobga olinadi:

Debet Sotish tannarxi – 9 600 000 so‘m;

Kredit Doimiy ishlab chiqarish ustama xarajatlari – 9 600 000 so‘m.

Ikkinchi oy oxirida esa, ortiqcha taqsimlangan 16 000 000 (240 000 000 / 75000 X (80000 — 75000)) doimiy ishlab chiqarish ustama xarajatlari ishlab chiqarish obyektlaridan normal quvvatdan ortiqcha foydalanilganligi sababli qayta tiklanishi lozim. Mazkur operatsiya buxgalteriya hisobida quyidagicha hisobga olinadi:

Debet Doimiy ishlab chiqarish ustama xarajatlari – 16 000 000 so‘m;

Kredit Sotish tannarxi – 16 000 000 so‘m.

O‘zgaruvchan ishlab chiqarish ustama xarajatlari esa, ishlab chiqarish hajmiga proporsional ravishda o‘zgaradigan bilvosita ishlab chiqarish xarajatlari bo‘lib, mahsulot birligiga nisbatan o‘zgarmas xarajat hisoblanadi. Ular ishlab chiqarish obyektlari quvvatlaridan haqiqatda foydalanishiga qarab tayyor mahsulot tannarxiga olib boriladi.

Tovar-moddiy zaxiralar tannarxining tarkibiy elementi bo‘lgan boshqa xarajatlar 2-son BHXSda zaxiralarni joriy joylashgan joyi va holatiga keltirish bilan bog‘liq xarajatlar kiritilishi belgilangan. Ularga tovar-moddiy zaxiralar bilan bog‘liq bo‘lgan

noishlab chiqarish ustama xarajatlarini kiritish mumkin. Masalan, ishlab chiqarish obyektlarida tayyorlangan mahsulotlarni saqlash uchun asosiy omborlari joylashgan joygacha yoki asosiy savdo nuqtalariga yetkazib berish bilan bogʻliq transport xarajatlarini tovar-moddiy zaxiralar tannarxiga boshqa xarajatlar sifatida kiritish oʻrinli hisoblanadi.

Umuman olganda, iqtisodchi olimlar tomonidan ham tovar-moddiy zaxiralar tannarxini 2-son BHXSda belgilangan qoidalar asosida shakllantirish tartibi taklif etiladi. Jumladan, O.E.Xudoyberdiyev yozishicha, «2-son BHXSda zaxiralarning xaridi bilan bogʻliq xarajatlarga quyidagilar kiritilgan:

Xarid tannarxiga (XT) qoʻshiladi: xarid narxi – XN; import poshinalari va boshqa soliqlar (soliq organlari tomonidan belgilangan tartibda qoplanadiganlardan tashqari) – IPBS; transportirovka xarajatlari – TX; ortish-tushirish xarajatlari – OTX; tayyor mahsulotlar, materiallar va xizmatlar xaridi bilan bogʻliq boshqa xarajatlar – BX.

Xarid tannarxidan chegiriladi: savdo chegirmalari, tushishlar va boshqa shunga oʻxshash moddalar – SHT.

Standartning ushbu qoidasi asosida xarid tannarxini aniqlashning quyidagi formulasini keltirib chiqarish mumkin:

$$XT = XN + IPBS + TX + OTX + BX - SHT \quad (1) \quad [11].$$

Muallif oʻz yondashuvida 2-son BHXSda belgilangan talablar asosida zaxiralar xarid tannarxini shakllantirish tartibini amaliy maʼlumotlar asosida yoritish bilan chegaralanganligini kuzatish mumkin.

Iqtisodchi olim S.N.Tashnazarov taʼkidlashicha, «zaxiralar tannarxi (ZT) bu zaxiralar xarid tannarxi (ZXT), zaxiralarni qayta ishlash tannarxi (ZQIT) va plyus boshqa ustama xarajatlari (BUX) yigʻindisidan iboratdir. Buni quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$ZT = ZXT + ZQIT + BUX \quad [9].$$

Iqtisodchi olim fikricha, bunday yondashuv zaxiralar tannarxini toʻgʻri shakllantirish va ularga doir axborotlarni moliyaviy hisobotda xalqaro va milliy standartlar talablariga asosan aks ettirish imkonini beradi. Biroq, iqtisodchi olim tomonidan tavsiya etilgan yondashuv faqat tadbirkorlik subyektida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot tannarxini shakllantirishda qoʻllaniladi. Bu yondashuvni barcha zaxiralarga nisbatan qoʻllanilishi toʻgʻri yondashuv hisoblanmaydi. Chunki, xarid qilingan materiallar sotib olish qiymati boʻyicha hisobga olinadi va moliyaviy hisobotda aks ettiriladi.

Bizning fikrimizcha, 2-son BHXSga muvofiq tadbirkorlik subyektlarida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot tannarxini sotib olish xarajatlari, qayta ishlash xarajatlari va boshqa xarajatlarni qoʻshish asosida hamda xarid qilingan boshqa zaxiralar tannarxini sotib olish xarajatlari boʻyicha hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish maqsadga muvofiq hisoblanadi (2-rasm).


2-rasmda tovar-moddiy zaxiralar tannarxi elementlarining foyda va zararlarga

olib borish ketma-ketligi keltirilgan. Bunda:

Birinchi, tovar-moddiy zaxiralar tannarxi elementlari bo'lgan sotib olish xarajatlari, qayta ishlash xarajatlari va boshqa xarajatlar asosiy ishlab chiqarish schyotida jamlangan holda ishlab chiqarish tannarxini tashkil qiladi. Hisobot davri oxirida asosiy ishlab chiqarish schyotida qoldiq, tugallanmagan ishlab chiqarish sifatida moliyaviy hisobotda aks ettiriladi;

Ikkinchi, asosiy ishlab chiqarishdan olingan tayyor mahsulot ishlab chiqarish tannarxida qabul qilinadi va hisobot davri oxirida sotilmagan qismi shu qiymatda moliyaviy hisobotda aks ettiriladi;

Uchinchi, hisobot davrida sotilgan tayyor mahsulot sotish tannarxida foyda va zararlarga olib boriladi.



**2-rasm. Tadbirkorlik subyektlarida tayyor mahsulot tannarxi shakllantirish va sotish tannarxiga olib borish algoritmi<sup>1</sup>**

Umuman olganda, MHXS asosida moliyaviy hisobotni tayyorlovchi tadbirkorlik subyektlari 1-son BHXS «Moliyaviy hisobotni taqdim etish» [1] ga muvofiq moliyaviy holat to'g'risidagi hamda foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi.


to'g'risidagi hisobotda ishonchli va o'rinli ma'lumotlar taqdim etish maqsadida xarajatlarning xarakteri yoki tashkilotdagi funksiyasiga asosan tasniflagan holda tan olingan xarajatlar tahlilini taqdim etishi zarur. Chunki, xarajatlar moliyaviy natijalarni shakllantirishda daromad va xarajatlarni ajratib ko'rsatish, foyda yoki zarar keltirish va prognoz qilish mumkinligi bo'yicha farqlanishi sababli quyi guruhlariga tasniflanadi.

1-son BHXSga ko'ra bunday tahlil «xarajatning xarakteri» yoki «sotish tannarxi» usullariga asosan amalga oshiriladi (1-jadval).

**1-jadval.**

**Foyda yoki zararda tan olingan xarajatlar tahlilini taqdim etish shakllari va ularning tavsifi<sup>1</sup>**

№	Tahlil shakli bo'yicha tasniflanishi	Tavsifi
1	«Xarajatning xarakteri» usuli	Bunda tashkilot xarajatlarni xarakteriga (xarid qilish xarajatlari, transport xarajatlari, eskirish va amortizatsiya xarajatlari, xodimlarga to'lovlar bo'yicha xarajatlar va boshqa) qarab foyda yoki zararda jamlaydi va ularning tashkilotdagi funksiyalari bo'yicha qayta taqsimlamaydi.
2	«Sotish tannarxi» usuli	Bu usulda tashkilot xarajatlarni sotish tannarxining tarkibiy qismi sifatida ularning funksiyasiga (sotish yoki ma'muriy) qarab tasniflaydi. Bunda tashkilot eng kamida sotish tannarxini boshqa xarajatlardan alohida aks ettiradi.



**3-rasm. 1-son BHXSga muvofiq «Sotish tannarxi» usuli shaklida zaxiralar umumiy harakati va moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibi<sup>2</sup>.**

1-jadvalda keltirilgan foyda yoki zararda tan olingan xarajatlar tahlilini o'tkazish shakllarida keltirilgan «Xarajatning xarakteri» usulini qo'llash sodda bo'lishi mumkin,

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi.

chunki unda xarajatlarni xarajatlarni funksiyasiga qarab taqsimlashga zarurat tug'ilmaydi. Biroq, «Sotish tannarxi» usuli foydalanuvchilar uchun xarajatlarning xarakteri bo'yicha tasniflanishi usuliga nisbatan o'rinliroq ma'lumotlarni ta'minlashi mumkin. Shu bois, monografik tadqiqot obyekti bo'lgan «O'zbekneftgaz» AJ tarkibiga kiruvchi korxonalar uchun foyda yoki zararda tan olingan xarajatlar tahlilini taqdim etishning «Sotish tannarxi» usuliga asoslangan shaklidan foydalanish taklif etamiz (3-rasm).

3-rasmda zaxiralarning harakati foyda yoki zararlar to'g'risidagi hisobotda «Sotish tannarxi» usuli orqali aks ettirish tartibi ko'rsatib o'tilgan. Bunda faoliyat turi savdo va ishlab chiqarish faoliyatlariga tasniflangan holda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida zaxiralarning umumiy harakati va ularning moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibi ko'rsatib berilgan.

Albatta, bu usul «O'zbekneftgaz» AJ tarkibiga kiruvchi korxonalar foyda yoki zararda tan olingan xarajatlar tahlilini o'tkazishda ishonchli va o'rinli ma'lumotlar bilan ta'minlash imkonini beradi. Bu esa, zaxiralar to'g'risidagi axborotlarni moliyaviy hisobotda to'g'ri taqdim etilishini va axborotdan foydalanuvchilar uchun ahamiyatli, ishonchli va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Shunday qilib, tovar-moddiy zaxiralar hisobini MHXS asosida takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

- 2-son “Zaxiralar” BHXS va 4-son “Tovar-moddiy zaxiralar” BHMSlarga muvofiq BHMSga va MHXSga asosan yillik moliyaviy hisobot tayyorlovchi tadbirkorlik subyektlarida tovar moddiy zaxiralar tannarxi elementlari va uni shakllantirish tartibi yoritib berildi. Xususan, xalqaro va milliy standartlarga muvofiq tovar-moddiy zaxiralar tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tasniflangan holda tavsiflab berildi.

- Xalqaro standartlarga muvofiq MHXS asosida yillik moliyaviy hisobot tayyorlovchi tadbirkorlik subyektlarida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot tannarxini sotib olish xarajatlari, qayta ishlash xarajatlari va boshqa xarajatlarni qo'shish asosida hamda xarid qilingan boshqa zaxiralar tannarxini sotib olish xarajatlari bo'yicha hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish maqsadga muvofiqligi asoslab berildi.

- MHXS asosida moliyaviy hisobotni tayyorlovchi tadbirkorlik subyektlari moliyaviy hisobotda ishonchli va o'rinli ma'lumotlar taqdim etish maqsadida xarajatlarning xarakteri yoki tashkilotdagi funksiyasiga asosan tasniflangan holda tan olingan xarajatlar tahlilini taqdim etishi zarur belgilangan. Shu sababli, tadqiqot obyekti bo'lgan «O'zbekneftgaz» AJ tarkibiga kiruvchi korxonalar uchun foyda yoki zararda tan olingan xarajatlar tahlilini taqdim etishning «Sotish tannarxi» usuliga asoslangan shaklidan foydalanish taklif etildi. Shuningdek, taklif etilgan shaklda zaxiralar umumiy harakati va moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibi asoslangan holda tavsiflab berildi.

Albatta, yuqorida berilgan taklif va tavsiyalar zaxiralar to'g'risidagi axborotlarni

buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotda to'g'ri taqdim etilishini hamda axborotdan foydalanuvchilar uchun ahamiyatli, ishonchli va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (1-son BHXS) «Moliyaviy hisobotni taqdim etish» <https://lex.uz/uz/docs/6312360>
2. Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (2-son BHXS) “Zaxiralar” <https://lex.uz/uz/docs/6312360>
3. Buxgalteriya hisobining milliy standarti (4-son BHMS) «Tovar-moddiy zaxiralar» <https://lex.uz/docs/4890446>
4. Alimxanova N.A. Tovar-moddiy zaxiralar hisobining nazariy asoslari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2023-yil, dekabr. 123-130 betlar.
5. Achilov A.N. Kimyo sanoati korxonalarida tovar-moddiy zaxiralar turkumlanishining o'ziga xos xususiyatlari va ular hisobini takomillashtirish masalalari. Iqtisod va moliya, 2019. 10-17 betlar.
6. Manuela Lucchese, Ferdinando Di Carlo Inventories Accounting under US-GAAP and IFRS Standards: The Differences That Hinder the Full Convergence. International Journal of Business and Management; Vol. 15, 2020. 180-195 p.
7. Moskalenko N.V., Vasyukova E.S., Chestnykh D.O. Features of the reflection of inventories in the financial statements. *Entrepreneur's Guide*. 2020; 13(4):193-201. (In Russ.) <https://doi.org/10.24182/2073-9885-2020-13-4-193-201>
8. Ровенских В.А. Совершенствование учета материальных ресурсов на горнодобывающих предприятиях. Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. Белгород, 2011. - 22 ст.
9. Tashnazarov S.N. Tovar-moddiy zaxiralar tannarxi va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №6, noyabr-dekabr, 2017. – 12 b.
10. Xayitboyev M.I. Tovar-moddiy zaxiralarni baholash va ularga doir axborotlarni moliyaviy hisobotda ochib berish xususiyatlari. Iqtisodiyot va moliya, 2019. 22-26 betlar.
11. Xudoyberdiyev O.E. Joriy aktivlar tarkibida zaxiralarni baholash: xalqaro va milliy standart qoidalarini taqqoslash. Moliya ilmiy jurnali, 2022. 36-49 betlar.



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

**Muharrir:** Xakimov Ziyodulla Axmadovich  
**Ingliz tili muharriri:** Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich  
**Rus tili muharriri:** Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li  
**Musahhah:** Karimova Shirin Zoxid qizi  
**Sahifalovchi va dizaynerlar:** Sadikov Shoxrux Shuxratovich  
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, aprel, 4-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)  
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)  
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**